

ZAMONAVIY TADBIRKOR IMIDJNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Aliyev Shehroz Yodgor o'g'li

Samarqand davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7424257>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy tadbirkorning psixologik xususiyatlar va uning rahbarlik qobiliyatlarini shakllantirish shart-sharoitlari keltirib o'tilgan

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, muloqot, boshqaruv, xulq-atvor, xususiyatlar, rahbar, motivatsiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБРАЗА СОВРЕМЕННОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЯ

Аннотация. В данной статье описаны психологические особенности современного предпринимателя и условия формирования у него лидерских качеств.

Ключевые слова: предпринимательство, общение, управление, поведение, характеристики, лидер, мотивация.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE IMAGE OF A MODERN ENTREPRENEUR

Abstract. This article describes the psychological characteristics of a modern entrepreneur and the conditions for the formation of his leadership abilities.

Keywords: entrepreneurship, communication, management, behavior, characteristics, leader, motivation.

“Tadbirkorlik – bu muloqotdir. Muloqot – insonlar o’rtasida o’zaro munosabatlar jarayoni bo’lib, doimiy ravishda diqqat-e’tibor talab qiladi. Tadbirkor amalga oshirayotgan faoliyati jarayonida boshliqlar, yollanib ishlovchilar va boshqa tadbirkorlar bilan muomalada bo’ladi. Bu esa o’z navbatida o’zaro munosabatlar shakllanishida shaxsiy sifatlar rolini e’tirof etadi.

Tadbirkorlik va biznesni tashkil etishdagi mehnat motivatsiyasini o’rganishga bag’ishlangan izlanishlar bir talay bo’lib, xorij olimlari ushbu yo’nalishda qator nazariyalarni ishlab chiqishgan. Tadbirkor rahbarning tashkilotchiligi mehnat jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, ishlab chiqarish va tarbiyaviy jarayonlarga ta’sir ko’rsatish, guruh faoliyatini oliy maqsadlarga qarata olish qobiliyati kabi masalalarni qamrab oladi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor rahbar faoliyatining mazmuni uning boshqarish san’atini nechog’lik egallagani, ya’ni odalarni jamoaga uyushtirish, ishlarni uzoq va yaqin muddatlarga rejalashtirish, nazorat qilish, axborotlar ayirboshlash, boshqarishni oqilona tashkil etish kabi mezonlar bilan ham izohlanadi. Bunda tadbirkor rahbar ongliligi, tadbirkorliligi, ishlab chiqarishni ishning ko’zini bilib tashkil etishi, belgilangan natijalarga erishishi, odamlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirib borishi uning guruh, jamoa, jamiyat oldida ma’suliyat, burch tuyg’usini chuqur xis qilishi muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorning tashkilotchilik qobiliyati hamma narsada muvaffaqiyatga erishuvining muhim shartidir.

- ✓ Tadbirkor rahbarda tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo'lishi: Rahbarning odamlar bilan til topib ishlash mahorati: Tadbirkor rahbarning mehnatga munosabatida ishbilarmonligi:
- ✓ Rahbar faoliyatida ijro etish qobiliyatining namoyon bo'lishi:
- ✓ Tadbirkor rahbarning qarorlarni qabul qilishdagi uquvi:
- ✓ Tadbirkor rahbarning odamlarga munosabati:
- ✓ Tadbirkor rahbarning o'z-o'ziga talabchanligi:

Tadbirkor rahbar kamsuqum, qat'iy, halol, shijoatli bo'lib, ishchi-xizmatchilarning fikri, taklifi, mulohazalari bilan hisoblashib, demokratik usulda ish ko'radi. Shu bilan bir qatorda, korxonada intizomni, tartibni talabchanlik bilan nazoratga oladi. Sifat bilan ko'rsatkichni e'tibordan chetda qoldirmaydi.

Tadbirkor rahbar va xodimlar o'rtasidagi ruhiy psixologik ziddiyatlar kelib chiqishga sabab:

- ✓ mehnat jarayonining noto'g'ri uyushtirilishi;
- ✓ shaxslararo munosabatlarning xilma-xilligi va murakkabligi;
- ✓ jamoa a'zosining o'ziga xosligidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor rahbar faoliyatining mazmuni uning boshqarish san'atini nechog'lik egallagani, ya'ni kishilarni jamoaga uyushtirish, ishlarni uzoq va yaqin muddatlarga rejalashtirish, nazorat qilish, axborotlar ayirboshlash, boshqarishni oqilona tashkil etish kabi mezonlar bilan ham izohlanadi. Bunda tadbirkor rahbar ongliligi, tadbirkorligi, ishlab chiqarishni ishning ko'zini bilib tashkil etishi, belgilangan natijalarga erishishi, kishilarning m oddiy va m a'naviy ehtiyojlarini qondirib borishi, uning guruh, jam oa, jamiyat oldida mas'uliyat, burch tuyg'usini chuqur his qilishi muhim ahamiyatga ega. Tadbirkorning tashkilotchilik qobiliyati hamma narsada muvaffaqiyatga erishuvining muhim shartidir. Qanday tadbirkor rahbar muvaffaqiyatiga tez erishadi? Psixolog olimlar uning bir necha omillaiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Bular quyidagilardir:

Tadbirkor rahbarda tashkilotchilik qobiliyatining nam oyon bo'lishi:

- ✓ jamoada sof axloqiy muhit paydo qila olishi, hammaning hamkorlikda harakat qilishini ta'minlay olishi;
- ✓ kishilarni ishontira olishi va jamoada o'zaro yaxshi m unosabatlarni qaror toptirish uchun shart-sharoit yaratishi.
- ✓ Rahbarning kishilar bilan til topib ishlash mahorati:
- ✓ tadbirkor o 'z qo'l ostidagilarning nimaga qodirligini hisobga olib ishlarni taqsimlashi;
- ✓ kishilarni uyushtirishning eng m uhim omillaridan foydalanishi;
- ✓ Tadbirkor rahbarning mehnatga munosabatida ishbilarmonligi quyidagilarda ko'rinadi:
- ✓ ishlab chiqarish va boshqa jabhalarda har xil muammolarni hal etishda eng qulay yo'llarini izlab topish;
- ✓ vijdonlilik va adolatlilik;
- ✓ boshlagan ishlarni oxiriga etkazish.

Rahbar faoliyatida ijro etish qobiliyatining nam oyon bo'lishi:

- ✓ kasbiy malaka va ko'nikmaga ega bo'lishi;
- ✓ texnik vazifalarni hal etishga uquvliligi;
- ✓ yangiliklar va g'oyalarni ishlab chiqarishga joriy etib borishi.

Tadbirkor rahbarning kishilarga munosabati:

- ✓ o'z va'dasi, so'zining ustidan chiqishi;
- ✓ kishilarni bir-biridan ajratmasligi hammaga bir xil munosabatda bo'lishi;
- ✓ o'z qo'l ostidagilar va boshqalarga tavozeda bo'lishi va o'zini tuta bilishi, odobliligi va xushmuomalaligi;
- ✓ kishilarga munosabatda har bir kishining ruhiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olib muomalada bo'lishi.

Tadbirkor rahbarning o'z-o'ziga talabchanligi quyidagilarda ko'rinadi:

- ✓ o'z xatti-harakatlarini tanqidiy baholay olishi;
- ✓ o'z imkoniyatlarini hisobga olib ishlashi;
- ✓ boshqalarning unga bergan ijobiy va salbiy baholarini tahlil etib, ulardan tegishli xulosa chiqarishi.

Xulosa qilib aytganda tadbirkor faoliyati faqat tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lmay, u insonlar, qo'l ostida xizmat qiluvchi mutaxassislar va ishchilar, ayniqsa, chet ellik hamkasblari biznesmenlar doirasida umumaxloqiy me'yorlarga rioya qilishi bilan ham baholanadi. Ishdagi muvaffaqiyatning yarmidan ko'prog'i uning odobi, madaniyati, dunyoqarashi, ishbilarmonlik qoidalarini qay darajada bilishiga bevosita bog'liqdir. Bozor iqtisodiyoti sharoiti tadbirkor rahbarlardan boshqaruv uslublarini takomillashtirishni talab etadi. Boshqaruv uslublari, asosan, ongli ravishda muayyan maqsadlarga erishish uchun xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Кадиров О. С. ЎСМИРЛАРНИНГ ЖИНОЙИ ҲАТТИ-ҲАРАКАТЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ //ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2020. – №. SI-2№ 5.
2. Kadyrov, O. Our Unique Scientific and Spiritual Heritage is a Source of Strength and Inspiration. *JournalNX*, 7-10.
3. Kudusovna, K. N., & Safarovich, K. O. (2021). Socio-Psychological Features of Protecting Young People from Domestic Violence. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 126-129.
4. Ismailovich A. S. PROBLEMS OF IMPROVING PSYCHOLOGY OF HEALTHY LIFESTYLE OF UZBEK FAMILY //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 1. – С. 313-318.
5. Saidov A. SOCIAL PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE FORMATION OF A CULTURE OF A HEALTHY LIFESTYLE IN THE FAMILY //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B7. – С. 867-871.
6. Sharifjon To'lqin o'g A. et al. TA'LIM-TARBIYA TIZIMI VA O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING AHAMIYATI //MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 57-60.
7. Azamat, S. (2022). On The Basis Of National Values To Raise A Healthy Generation In The Family. *Journal of Positive School Psychology*, 6(10), 2417-2420.
8. Ismailovich S. A. Socio-Psychological Problems of Educating an Independent-Minded, Creative Person in the Educational Process //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 4-7.

9. Axmedov, A. (2022). The negative effect of internet gambling on youth psychology. *AsianJournalof Multidimensional Research*, 11(5), 76-79
10. Saidov A., Avulkhairov F., Razakov F. SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE PROBLEM OF THE FORMATION IN THE FAMILY OF PERCEPTIONS OF A HEALTHY LIFESTYLE OF YOUNG PEOPLE AND THE STATE OF ITS STUDY //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B7. – C. 1432-1436.
11. www.hozir.org